

THE IMPACT OF INFORMATION ATTACKS ON THE YOUNG GENERATION

*Mamirov Xayrullo Hamzaevich. Position:
Associate Professor. Place of work: Military
Aviation Institute of the Republic of
Uzbekistan. Department of General
Engineering and Natural Sciences.*

Annotation: As you know, youth determines the development of society and is one of the most important tasks in its research as a "force" influencing its long-term development. The article highlights the socio-psychological aspects of protecting the youth of Uzbekistan from the impact of a destructive information attack. It also notes the existence of destructive information in the political, economic, cultural and social spheres and measures to protect against them.

Keywords: information, society, personality, subjectivity, computer games, acceleration, Internet sites, unlimited "no filter", teenager, psychological impact, self-esteem, self-control, psychological protection..

Annotatsiya: Ma'lumki, yoshlar jamiyat taraqqiyotini belgilovchi, uning istiqboli rivojiga ta'sir etuvchi "kuch" sifatida tadqiq etishga molik masalalardan biri sanaladi. Maqolada O'zbekistonlik yoshlarni destruktiv axborot xurujlaridan himoyalashning jihatlari ko'rsatib o'tilgan. Bunda, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy sohalarida destruktiv axborotlarni mavjudligi va ulardan himoya qilish chora tadbirlari belgilangan.

Kalit so'zlar: axborot, jamiyat, shaxs, sub'ektivlik, kompyuter o'yinlari, akseleratsiya, internet saytlar, sarhadsiz, "filtrsiz", psixologik ta'sir, o'z-o'ziga baho berish, o'zini nazorat qilish, psixologik himoya.

Yoshlar kamolotini ta'minlash dolzarb masala sifatida tadqiq etib kelinayotgan mavzulardan biri sanaladi. O'zbekistonda yoshlar umumiy aholining 60 foizdan ortig'ini tashkil etishini nazarda tutsak, yoshlarga doir bo'lgan har qanday masalani tadqiq etish muhim hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 14-sentabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" 406-sonli Qonunning 5-moddasida "Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash" belgilangan. Demak, bugungi kun yoshlarini axborot hurujlaridan himoyalash muhim ijtimoiy-madaniy masala hisoblanadi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020-yil 29-iyun kuni Yoshlar kuni munosabati bilan O'zbekiston yoshlariga tabrigida "Barchamiz guvohmiz – bugun dunyo misli ko'rilmagan sur'atlar bilan keskin o'zgarib bormoqda. Ijtimoiy hayotimizda ko'plab ijobiy jarayonlar bilan birga yosh avlodning qalbi va ongini egallashga qaratilgan ma'naviy tahdidlar ham tobora xavfli tus olmoqda. Bunday murakkab vaziyatda farzandlarimizning zararli ta'sirlardan asrash, doimo hushyor va ogoh bo'lib yashash eng dolzarb vazifamiz bo'lib qolmoqda. Yoshlarimizni ona Vatanimizga, mustaqillik g'oyalariga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning iste'dod va qobiliyatini, ezgu intilishlarini ruyobga chiqarish yo'lida boshlagan katta ishlarimizni bundan buyon ham qat'iyat bilan davom ettiramiz. Jamiyatimizda aholi, ayniqsa, yosh yigit-qizlarimizning ma'naviy va ma'rifiy saviyasini doimiy yuksaltirish – birinchi darajali ahamiyatga egadir" deb ta'kidlagan.

Axborot so'zi arab tilidan olingan bo'lib, "xabarlar majmuasi" degan ma'noni anglatadi. "Xabar" esa, arabchadan ma'lum qilish, biror bir hodisani, voqeani etkazish degan ma'nolarni bildiradi. Maishiy va kasbiy muloqotlarda xabar berish, xabardor

bo‘lish, xabar topish kabi tushunchalar voqea-hodisalarni ma’lum qilish, ya’ni xabarni “A” nuqtadan “V” nuqtaga etkazish uchun qo‘llanadi.

Axborot (ma’lumot) - bu axborotni tasavvur etishning so‘z, matn, tasvir, raqamli ma’lumotlar, grafiklar, jadvallar va hokazolar orqali ifodalanish shakli. Keng ma’nodagi axborot insonlar, insonlar bilan texnik qurilmalar, jonli va jonsiz tabiat orasidagi signal almashinuvini o‘z ichiga oladigan umumilmiy tushunchadir. Hozirgi tahliliali zamonda internet, OAV orqali tarqatilayotgan axborotlarda mavjud turli ko‘rinishdagi buzg‘unchi g‘oyalar, odob-axloq masalalarga salbiy ta’sir etuvchi manfur illatlar har bir ongli kishini tashvishga solishi aniq. Keyingi paytlarda internet bilan bog‘liq buzg‘unchiliklar, global tarmoqdan qabih maqsadda foydalanayotganlar soni kundankunga ortib bormoqda. Internet bilan bog‘liq salbiy ta’sirlarga, o‘smirlik va ilk o‘spirinlik yoshidagilar ko‘proq moyilligini e’tiborga olish lozim. Negaki, bu yosh davrida asosiy psixologik jihatlari “Men” siymosini yuqori darajada shakllanganligi va u o‘z “Men”ini tengdoshlari yaqinlari orasida ko‘rsatishga harakat qilishi bilan xarakterlanadi. Bunda yosh o‘spirin xatti-harakatiga ikkita usul nuqtai nazaridan baho berish mumkin:

- birinchidan, o‘spirin o‘zi qo‘lga kiritgan yutuqlari natijasi bilan baholaydi. Masalan, o‘spirin qiyin vaziyatda o‘zini yo‘qotmaydi yoki yosh bolani yong‘indan qutqazdi – “Men qo‘rqoq emasman” deydi. Ma’lum qiyin topshiriqni bajaradi. “Men qobiliyatliman” – deydi. Axloqqa oid bunday hatti-harakatlar, o‘spirinning o‘z qat’iyligini sinashi hamdir;

- ikkinchidan, ijtimoiy taqqoslash, ya’ni o‘zi haqidagi boshqa ishlarni, fikrlarni solishtirishdan iboratdir.

Buning oqibatida, zalolatga boshlovchi elektron nashrlar va axloqsiz videolavhalar keng yoyilmoqda. Bu bilan yoshlarimizning ongini zaharlash niyatida internetdan ustalik bilan foydalanmoqda. O‘zlarini “yaqin do‘st”, “ota-onadan ham

yaqin”, “beg‘araz yordam” va “hidoyatga yetaklovchi” hamda “insonlarga yaxshilik qilish” kabi ko‘rinishida tanitib, yoshlarni to‘g‘ri yo‘ldan chalg‘itmokda. Aslida, yoshlarni diniy va dunyoviy ilmlarni berish emas, ular to‘da boshi, o‘zini rahnama yetakchi (norasmiy lider)ning fikrlarini hamda o‘rgatayogan qo‘shirnoq ichida ilmlari, yo‘q narsadan va‘da qilinayotgan katta boyliklariga uchmoqda. Boshqa tomondan qaraganda, ular bu xatti-harakatlari bilan yoshlarni jar yoqasiga tortayotgani va kimningdir nog‘orasiga o‘ynayotganini bilishmaydilar. Bu esa o‘z navbatida yoshlarni yo‘ldan urib, oxir oqibatda, jamiyatga qarshi yovuz bir kuchga aylantirmoqda.

Bugungi kunda internetdan olingan har qanday ma‘lumotlar to‘g‘ri, ishonchli va zararsiz bo‘lavermaydi. Bizga ma‘lumki, ko‘plab sayt va tarmoqlar katta mablag‘lar evaziga filtrlab qo‘yilgan va bu holatni ko‘plab davlatlarda kuzatish mumkin. Albatta, ta‘qiqqlar yoki filtr vositalari orqali odamlarni internet olamidagi turli kuchlarning xatarli tahdidlaridan, keraksiz va salbiy axborotlardan saqlash qiyin va faqatgina vaqtinchalik holat bo‘lishi mumkin.

Bugun kunda axborot chunonam ko‘p va tez kirib kelayaptiki, ularni “hazm” qilish uchun teran tafakkur va keng dunyokarash talab etiladi. Ayniqsa, internet olami yoshlarimiz e‘tibori va qiziqishini tortib borayotgan bugungi davrda ayrim kompyuter o‘yinlari haqida ham shunday misollarni keltirish mumkin. Mutaxassislar ma‘lumotlariga ko‘ra, internet orqali tarqatiladigan kompyuter o‘yinlarining 49 foizi sezilarli darajada zo‘ravonlik va yovuzlik ko‘rinishiga ega, 41 foiz jangari o‘yinlarda esa o‘yin qahramoni o‘z maqsadiga yetishish uchun shunday zo‘ravonlik va yovuzlik sodir etadi. 17 foiz o‘yinlarda ana shu zo‘ravonlik va yovuzlikning o‘zi bosh maqsad hisoblanadi. Turli jangovar, mentalitetimizga (lot. Mentalis- aqliy) mos bo‘lmagan, ba‘zan qahramonlik vahshiylikka o‘tib ketadigan bu kabi o‘yinlar farzandlarimiz axloqiy-estetik tarbiyasiga to‘g‘ri ta‘sir ko‘rsata oladi deya olmaymiz. Bir qarashda ular

oddiy o‘yindek ko‘ringani bilan zo‘ravonlik g‘oyalari, yovuzlik kayfiyatini uyg‘otishi juda ko‘p salbiy okibatlarga olib kelgani xususida hayotiy misollar ko‘plab topiladi.

Psixologlar tomonidan hozirgi kunda “axboriy-qo‘poruvchi omil” degan tushuncha iste‘molga kiritilgan. Haqiqatan ham internetdan tarqatilayotgan qo‘poruvchilik ruhidagi axborotlar ba‘zan harbiy harakatlarni amalga oshirgandan ham ko‘proq samara berishi mumkin. Xususan, mazkur axborotlarning shaxsga ta‘sir qilishi mumkin bo‘lgan jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi: kishilarning axloqiy-psixologik holatini, dunyoqarashi, siyosiy nuqtai nazari va e‘tiqodini maqsadli ravishda o‘zgartirishga nisbatan qaratilgan axboriy bosim, xuruj; noto‘liq, ataylab buzilgan, noto‘g‘ri ma‘lumot va axborotlarning tarqatilishi; to‘g‘ri ma‘lumotning kishilar tomonidan noto‘g‘ri idrok etilishini ta‘minlashga intilish.

Shuningdek, yoshlarning qalbi va ongini egallashga qaratilgan turli xil vayronkor g‘oyalarning kirib kelishi ayniqsa, internet tarmog‘i orqali ko‘proq ko‘zga tashlanyapti. Bu jarayon farzandlarimizning kompyuter texnologiyalari, turli kompyuter o‘yinlariga qiziqishining ortishi bilan ham bog‘liq. Ularning bu qiziqishlaridan buzg‘unchi g‘oya targ‘ibotchilari o‘z maqsadlari yo‘lida samarali foydalanishga harakat qilmoqda. Boshqacha aytganda, “o‘yinbozlik” jamiyatning ma‘lum bir qismiga tahdid ekanligini yaxshi biladigan ekstremistlar o‘smirlar, yoshlar ongini shu yo‘l bilan egallashga harakat qilmoqda.

Hozirgi kunda internet saytlarida o‘spirinlarga kuchli ta‘sir etuvchi axborotlarni quyidagicha tasniflash mumkin: birinchi toifadagi axborotlar sirasiga yot, buzg‘unchi g‘oyalar (diniy ekstremizm va terrorchilik g‘oyalari, millatchilik, irqchilik, sadizm kabilar)ni kiritish mumkin; ikkinchi toifadagi axborotlar esa G‘arb hayot tarziga xos, o‘zbek mentalitetiga zid odatlar va ko‘nikmalarni targ‘ib etadi. Bu ayniqsa, g‘arb yoshlarining kiyinishi, odatlarini targ‘ib qiluvchi ma‘lumotlar, kliplar, filmlarda yaqqol namoyon bo‘ladi;

uchinchi toifaga esa hali tekshirilmagan, o‘z isbotiga ega bo‘lmagan turli hujumkor axborotlarni kiritish mumkin.

Internet saytlaridan tarqatilayotgan bu kabi yot g‘oyalar va axborotlarni yoshlar tomonidan qabul kilinayotganligi va uning oqibatlari jahondagi barcha mamlakatlari halkini ham tashvishga solmokda.

Yoshlarimiz ongini egallashga qaratilgan har qanday xatti-harakatlarga, milliy manfaatlarimizga rahna solishga, yoshlarimizni ongi egallash orqali ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatish urinayotgan g‘arazli kuchlarga qarshi doimo ogoh turishimiz darkor. Ana shundagina bizni hech kim, hech narsa o‘z tanlagan yo‘limizdan ortga qaytara olmaydi va biz ko‘zlagan ulug‘vor maksadlarimizga albatta yetamiz.

Albatta, internetning imkoniyatlari faqat salbiy jihatlarda aks etibgina qolmay, uning o‘ziga xos ijobiy tomonlari ham mavjud. Ular sirasiga internetning ma’lumotga darhol ega bo‘lish, axborot va ma’lumotlarning turfa xilligi, shaxsning o‘zini namoyon qilishga yordam beruvchi muloqot imkoniyatining mavjudligi, ta’lim borasidagi imkoniyatlarini ko‘rsatish mumkin. Internetning ijobiy tomonlarini inkor etmagan holda, uning eng kam sarf-xarajat bilan yoshlar orasida samarali destruktiv faoliyat olib borish imkoniyati mavjudligini ham ta’kidlash lozim. Har kuni turli ijtimoiy tarmoqlar (“Facebook”, “MySpace”, “Twitter”, “Habbo Hotel”, “Friendster”, “Tagged.com”, “Instagram”, “WhatsApp”, “GAP”, “Linkedin”, “Odnoklassniki”, “Jivoy jurnal”, “V kontakte”, “V krugu družey”, “Mening olamim”, va hokazalar)da milliardlab insonlar bir-birlari bilan virtual muloqotga kirishmoqdalar, turli saytlarga kirmoqdalar, “YouTube” singari videoxostinglarga tashrif buyurmoqdalar, har xil blogerlar o‘z fikrlarini bayon etib, boshqalarning mulohazalari bilan tanishmoqdalar. Yoshlarda buzg‘unchi, destruktiv g‘oyalarga qarshi hali mafkuraviy immunitet to‘la shakllanmaganligini, ularning eshitgan yoki o‘qigan ma’lumotiga juda tez ishonishini nazarda tutsak, bu ancha e’tibor qaratish zarur bo‘lgan jarayondir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shunday xulosa qilish mumkinki, shaxs kamol topishi va barkamol shaxsni tarbiyalashda g‘oyaviy omillarning o‘rni va roli muhim hisoblanadi. Bola dunyoga kelar ekan o‘z dunyoqarashini shakllantirishda albatta kimgadir suyanadi, kimgadir taqlid qiladi. Inson hayotiga ta‘sir etuvchi har qanday destruktiv axborotlarga erishmagan insongina jamiyatda komil inson bo‘lib yetishishi mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. “Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish: mavjud vaziyat va rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami –T: “Tafakkur-Bo‘stoni” nashriyoti 2019. – B.216.
2. Samarov R.S. Axborotning psixologik xavfsizligini ta‘minlash mexanizmi (uslubiy qo‘llanma). – T.: Universitet, 2015. – B. 92.
3. Fitrat.uz/ yoshlarni-internetdagi ahborot xurujlari va mafkuraviy tahdidlardan asrash
4. Ma‘naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi – matbaa ijodiy uyi nashriyoti –T.: 2016. – B 445.